

Oliy ta’lim talabalarining kasbiy motivatsiyasiga qadriyatlar tizimining ta’siri

**Djumaniyazova M.X. – UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrası
dotsenti., ps.f.f.d (PhD)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim talabalarining kasbiy motivatsiyasiga qadriyatlar tizimining ta’siri to‘g‘isidagi fikr va qarashlar tahlil qilingan. Shuningdek, shaxs kasbiy faoliyat motiviga ta’sir qiluvchi omillar haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, qadriyatlar tizimi, akmeologik yondashuv, talabalik davri, ehtiyoj, qiziqish, motiv, shaxs yo‘nalishi, akmeologik omil

Shaxs uchun kasbda o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini namoyon qilish va o‘zini anglash muammolari hozir, bizning fikrimizcha, ertaroq yoshda paydo bo‘layotir va bu bir necha yil oldingiga qaraganda keskinroq namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish jarayonlarini faollashtirish masalalari talaba yoshlar uchun eng dolzarbdir.

Shaxsning kasbini egallash bosqichidagi ana shunday masalalardan birini biz kasbiy motivatsiyani rivojlantirish jarayonining akmeologik, psixologik va pedagogik faollashuvini kasbiy o‘z-o‘zini anglashning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqamiz (O.V.Moskalenko).

Mehnat samaradorligi muammolari, professionalizm qonuniyatları, shaxs psixologiyasi, individual faoliyat uslubi, psixologik kasbiy muhim sifatlar bo‘yicha umumiyy psixologiya (B. G. Ananov, A. A. Bodalev, A. A. Derkach, B. F. Lomov va b.), mehnat psixologiyasi (E. A. Klimov, K. K. Platonov, V. D. SHadrikov va b.), boshqaruv psixologiyasi (R. L. Krichevskiy, L. D. Kudryashova, V. I. Lebedev, A. V. Filippov va b. A. A. Bodalev, A. A. Derkach, V. G. Zazykin, N. V. Kuzmina, A. A. Rean va h.k.) doirasida amalga oshirilgan ko‘plab nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari har qanday kasbiy faoliyat samaradorligi qator shartlar va omillar guruhiiga bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Yosh avlodning shaxsiy shakllanishi muammosiga akmeologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyati va jihatlari ijtimoiy-axloqiy tajribani o‘zlashtirish va tushunishning psixologik mexanizmlarini ochib berish, erishilgan narsalarni hissiy

va axloqiy idrok etishi qanday sodir bo‘lishini, inson o‘z ehtiyojlari bilan yashaydimi, o‘siprin shaxsiy shakllanish bosqichida qanday bog‘lanadi, nimani xohlaydi, nima qila oladi va jamiyat nimaga muhtojigini aniqlashni taqozo etuvchi o‘sib borayotgan shaxs dinamikasini o‘rganishdan iborat .

Talabalik davrida ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri bu motivatsion vektorga ega bo‘lgan (A. N. Leontiev) qadriyat yo‘nalishini shakllantirish mexanizmi (L. I. Bojovich, D. I. Feldshteyn, I. S. Kon va b.) hisoblanadi.

“Qadriyat yo‘nalishlari” ijtimoiy-psixologik kategoriyasining tahlili “ehtiyoj”, “qiziqish”, “qadriyat”, “motiv”, “shaxs yo‘nalishi” kabi tushunchalar bir semantik makonda yotishidan dalolat beradi (A. S. Guseva). Agarda faoliyat ma’lum qadriyatlarni yaratishga qaratilgan bo‘lsa, u holda aynan ushbu qadriyatlar faoliyatning asosiy motivi bo‘lib qolishi kerak . Shuning uchun ham shaxsning qadriyat yo‘nalishlari tizimining diagnostikasi motivlarini tahlil qilish, shuningdek, shaxsning ehtiyojli-motivatsion sohasini (ichki motivatsiyasini) shakllantirishni rejorashtirish imkonini beradi .

Rus va xorijiy psixologiyada shaxsning qadriyatlari va qadriyat yo‘nalishlarini o‘rganishga oid bir necha yondashuvlar mavjud. Rus psixologiyasida qadriyat yo‘nalishlari asosan ichki shaxsiy shakllanishlarda – shaxsiy ma’nolarda ko‘rib chiqilgan (A. G. Asmolov, B. S. Bratus, B. V. Zeigarnik va b.), shaxs yo‘naltirilganligi (Lomov B. F.). Shaxsning yo‘naltirilganligi (orientatsiyasi) ular tomonidan etakchi xususiyat sifatida ajralib ko‘rsatiladi va turli mualliflar tomonidan turlicha – “dinamik tendensiya”, “asosiy hayotiy yo‘nalish”, “ma’no shakllantiruvchi motiv” sifatida ta’riflanadi. Sub’ektiv munosabatlar muammosi, ularning ontologiyasi va gnoseologiyasi rus psixologiyasida ilk bor A. F. Lazurskiy tomonidan ko‘tarilgan. Lazurskiy shaxsning kasbga, umuman mehnatga, mulkka, boshqa odamlarga va jamiyatga nisbatan munosabatini alohida ta’kidlab o’tgan. V. M. Myasishchev, A. F. Lazurskiy g‘oyalarini rivojlantirib, ularning shakllari va turlarini nazariy talqin qiladigan shaxsiyat munosabatlarining psixologik konsepsiyasini ishlab chiqdi. V.D. Shadrikovning asarlari kasbiy faoliyatda shaxsning motivatsion sohasini va uning kasbiy yo‘nalganligini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Xorijiy psixologiyada qadriyatlар va qadriyat yo‘nalishlari shaxsning asosiy xarakteristikasi sifatida E. Shpranger, J. Xoland, M. Rokich, V. Frankl, L. Gordon,

V. Xolsman, Lindsi va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, E. Shpranger qadriyat yo‘nalishlarini “dunyoni bilish shakli” yoki “hayot shakli”, sof ma’naviy tamoyil va faqat insoniyat madaniy holatining mahsuli sifatida ko‘rib chiqadi. V. Franklning nazariy konsepsiysi hayot mazmunini insonning xulq-atvori va munosabatini belgilaydigan, qadriyatlar tizimi (ijodkorlik, tajribalar, munosabatlar) shaklida namoyon bo‘ladigan asosiy fundamental ta’lim sifatida tan olishga asoslangan. I. Darli, T. Xagen, J. Xolandning fikrlariga ko‘ra, kasbiy ustanovkalar umumiy hayotiy ustanovka va qadriyatlarning asosiy aspekti hisoblanadi.

Shunday qilib, qadriyatlar va qadriyat yo‘nalishlari tadqiqotchilar tomonidan inson tomonidan uning hayotini umumiy mazmuni sifatida ongli ravishda ko‘rib chiqiladi va qabul qilinadi, bu erda shaxsiy mazmun - voqelikning individuallashtirilgan aksi, u shaxsning faoliyati va muloqoti amalga oshiriladigan ob’ektlarga nisbatan munosabatini ifodalaydi. (B.V.Zeygarnik, B.S.Bratus). Muxtasar qilib aytganda, qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish jarayoni (A. V. Kirichenko) insonda ehtiyojning paydo bo‘lishi, qidiruv faolligi va qiziqish tug‘ilishiga olib keladigan narsaga ongsiz ehtiyoj sifatida belgilanadi.

Natijada predmet (hodisa) topiladi, ehtiyoj predmetlashadi (moddiylashadi). Ehtiyoj predmeti topilganda, qidiruv faolligi motiv maqomini oladi. Predmet inson uchun qadriyatga aylanadi, u unda shaxsiy mazmunni kashf etadi va hayotiy maqsadni ko‘radi. Shunday tarzda qadriyatni yo‘naltiruvchi mexanizm paydo bo‘ladi. Qadriyat yo‘nalishini insonning tabiiy va ijtimoiy muhitning zamon va makonida, shaxsiy tajribaga asoslangan va doimiy o‘zgaruvchan vaziyatning konkret sharoitlariga muvofiq xatti-harakatlar uslubi va faoliyatida ongli ravishda aniqlash va baholashga shaxs tayyorligining ajralmas informatsion-emotsional-irodaviy xususiyati va ongi sifatida aniqlash mumkin. Shaxsning qadriyat yo‘nalishlari faoliyatining tabiatini va xususiyatlari psixologiyada qabul qilingan tushunchaga muvofiq, ularning tuzilishi va mazmunini tashkil etuvchi qadriyatlar ma’lum bir qadriyat xizmat qiladigan maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan ikkita asosiy guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhni maqsadli qadriyatlar (terminal qadriyatlar), ikkinchisini esa – vositali qadriyatlar - (instrumental qadriyatlar) tashkil qiladi.

Termial qadriyatlar eng muhim hisoblanadi - bu insonning asosiy maqsadlari, ular uzoq muddatli hayotiy istiqbolni, u hozir nimani qadrlashini va kelajakda nimaga intilishini aks ettiradi. Terminal maqsadlar, go‘yo, inson hayotining

mazmunini belgilaydi, u uchun nima muhim, ahamiyatli va qimmatli ekanligiga ishora qiladi. Maqsadlarni aniqlash, ya’ni o‘zini va hayotdagi o‘rnini topa bilish qobiliyati o‘smirlik va yoshlik davridagi shaxsiy etuklikning juda muhim ko‘rsatkichidir.

Qadriyatlar boshqa shaxsiy sifatlar (yo‘nalish, munosabat, e’tiqod) kabi ijtimoiy munosabatlar va hayotdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning inson ongida aks etish natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi . Qadriyatlar o‘zaro bog‘liq, dinamik muvozanatda va shaxsiy ahamiyatga asoslangan holda bir-biri bilan o‘zaro mutanosiblikda bo‘ladi. Qadriyat yo‘nalishlarining individual tarkibini belgilaydigan asosiy munosabatlar sifatida ularning shaxs uchun nisbiy ahamiyatliligi namoyon bo‘ladi. Qadriyat yo‘nalishlarining roli shundaki, ular kasbiy faoliyat yo‘nalishini aniqlaydi, uni qadriyatli qiladi. Mazmunga ega bo‘lganlari muayyan pozitsiyani egallash imkonini beradi, xulq-atvorni boshqaradi, o‘z-o‘zini namoyon etish usullarini shakllantiradi .

A. V. Kirichenkoning fikriga ko‘ra, ular eng moslashuvchan, erkin tanlovnvi va shuning uchun shaxsiy manfaatlar va inson ehtiyojlarini, shaxs va jamiyat, uning institutlari, madaniyati, qadriyatları o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olishni anglatadi. Qadriyat yo‘nalishlari, fikrimizcha, oliygoh talabalari o‘quv faoliyatining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning eng asosiy, eng ahamiyatli akmeologik omillarini aks ettiruvchi motivlar hisoblanadi.

Kasbiy o‘z-o‘zini anglashning motivatsion jihatni insonning ishslash uslubini, uning kasbiy o‘z-o‘zini anglashini motivlar, “harakatlantiruvchi mexanizmlar”, ya’ni odamni muayyan vaziyatda nima boshqaradi degan nuqtai nazaridan tavsiflaydi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni rus psixologiyasida shaxs tomonidan o‘zini o‘zi boshqarish va faoliyatining o‘ziga xos yuqori shakli sifatida talqin etiladi, buni o‘z-o‘zini bilish va o‘ziga nisbatan emotsiyonal-baholovchi munosabat, shaxsning o‘z-o‘zini anglashning yuqori darajadagi etuklik jarayonlaridan ajratib bo‘lmaydi. Men xohlayman, bilaman, qila olaman kabi uch komponentga asoslangan odam shaxsiyatining ijtimoiy tipologiyasi talaba shaxsining ta’lim faoliyati ehtiyojlari va kasbiy motivatsiyasining rivojlanishining turli darajalarini tasavvur etishga va shunga mos ravishda kasb-hunar ta’limi intensivligini aniqlashga imkon beradi.

Akmeologik omillar shaxsning kasbiy va ta’lim faoliyatida rivojlanishiga, professionalizmning cho‘qqilariga chiqishiga ta’sir qiladi. Shuning uchun tizimli metodologiya nuqtai nazaridan psixologik va akmeologik omillar bir xil tizimga mansub bo‘lsa-da, ko‘p miqyosli hisoblanadi. N.V. Kuzmina va A. A. Rean ma’lumotlariga ko‘ra, psixologik-akmeologik omillar uch xil bo‘ladi:

- ob’ektiv, mavjud tizimdagи inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, uni tizim uchun muhim natijalarga erishishga yo‘naltiradigan omillar;
- professionallikning shaxsiy shartlari bilan bog‘liq sub’ektiv omillar - motivatsiya, orientatsiya, qobiliyat, ijodkorlik, munosabatlar (ularning namoyon bo‘la olish o‘lchovi professionallikning o‘sishiga yordam beradi yoki to‘sqinlik qilishining sub’ektiv sabablarini tushuntiradi);
- “kasbiy muhit, menejerlarning professionalligi, tizimni boshqarish sifati”ni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ob’ektiv-sub’ektiv omillar. A. A. Bodalev va L. A. Rudkevich shaxsning “acme”ga erishishi bilan bog‘liq omillarni shartli ravishda shaxsning ijtimoiy makro va mikroomillariga (mikro muhit) va psixologik xususiyatlariga ajratadi, ular shartli ravishda ob’ektiv (ma’lum ma’noda odamning individualligiga bog‘liq bo‘lmagan) va sub’ektiv (o‘z ustida ishslash, ya’ni o‘zini takomillashtirishga faol intilish kabi) bo‘lishi mumkin”.

Fikrimizcha, rivojlanishning motivatsion omillarini oliygoh talabasi shaxsining psixikasida o‘quv faoliyati uchun kasbiy motivlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi atrofdagi voqelikning ayrim xususiyatlarini aks ettirish sifatida ko‘rib chiqish mumkin. A. I. Gebos talabalarning o‘qishga ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradigan va ta’limning eng yaqin va yakuniy o‘quv maqsadlarini, o‘zlashtirilayotgan bilimlarning nazariy va amaliy ahamiyatini anglash, o‘quv materialini emotsional taqdim etish shakli, ilmiy tushunchalarini rivojlantirishda “istiqbolli chiziqlar”ni namoyish etish, o‘quv faoliyatining kasbiy yo‘nalishi, o‘quv faoliyati tarkibida muammoli vaziyatlarni yaratadigan vazifalarni tanlash, o‘quv guruhida qiziquvchanlik va “kognitiv psixologik iqlim” mavjudligi kabi omillarni aniqlaydi.

A. K. Markova o‘quv faoliyati jarayonida shakllanadigan motivlarga bevosita ta’sir qiluvchi: o‘quv materialining mazmuni, o‘quv faoliyatini tashkil etish, o‘quv faoliyatining jamoaviy shakllari, o‘quv faoliyatini baholash, o‘qituvchining pedagogik faoliyati uslubi kabi omillarni aniqladi. Talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatining motivatsion omillarini aniqlashning qiyinligi, nazarmizda, konkret

motivatsion ierarxiya, "ba'zi motivlarning ustunligi va boshqalarining yordamchi roli" o'smirlikning psixologik xususiyatlariga kasbiy o'z-o'zini anglashni rivojlantirishning muhim bosqichi sifatida shuningdek, talabalar shaxsiyatining individual-tipologik xususiyatlariga ham bog'liq. Bundan tashqari, talabalar muhitiga mansublik yashash tarzi, kasbiy ta'lim va muloqot shaxsning yashash tarzi, boshqa yoshlar guruhlari va jamoalaridan farq qiladigan maxsus sabablar bilan belgilanadigan o'z-o'zini idrok etish va munosabatlar, xarakter va harakatlar uslubini shakllantiradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, shaxsning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning psixologik omillarini o'rganish shaxsning xarakterologik xususiyatlari yoki kasbiy manfaatlarining ustun ta'siri bilan bog'liq munozarali masalalardan biridir. Jumladan, A. A. Reanning fikriga ko'ra, talaba shaxsining talabaning o'quv faoliyatiga ichki motivatsiyasi tizimi birinchi kursdayoq "a'lochilar" va "uchchilar"ni shakllantirishda yetakchi rollardan birini o'ynaydi.

Bunday holda qobiliyatlarning yetishmasligi motivatsion sohaning rivojlanishi bilan qoplanishi mumkin (mavzuga qiziqish, kasb tanlashga nisbatang ongli munosabatda bo'lish va b.) va bunday kompensatsiya natijasi – ta'lim faoliyatida yuqori natijalarga erishishdir.

Xulosa qilib aytganda, oliygohda o'qitish bosqichida shaxs kasbiy jihatdan, birinchi navbatda, o'z faoliyatini o'zi tahlil qilishi, shaxsning psixologik xususiyatlari, kasbiy rivojlanish masalalarini, kelajakdagi kasbiy faoliyatda karerasi o'sishini ongli ravishda shakllantirish va boshqalar orqali rivojlanadi. Shu munosabat bilan, fikrimizcha, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, sharoit yaratish va birinchi navbatda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rag'batlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Faoliyat sub'ekti nuqtai nazaridan mustaqil ish maqsadli, ichki motivatsiyalangan, sub'ektning o'zi tomonidan bajarilgan umumiyligi xatti-harakatlar birligida tuzilgan hamda faoliyat jarayoni va natijasiga asosan korreksiyalangan deb ta'riflanishi mumkin.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlari oliygoh talabalari o'rtasida mustaqil ishslashga psixologik tayyoragarlikning yo'qligi, uni o'z-o'zini tashkil etishning umumiyligi qoidalalarini bilmaslik, mo'ljallangan harakatlarni amalga oshira olmaslikdan dalolat beradi. Shu bilan birga mustaqil ish talabaga qoniqish

bag‘ishlaydi va bu o‘zini takomillashtirish va o‘zini rivojlantirish jarayoni sifatida qabul qilinadi .

O‘quv faoliyatining maxsus, yuqori shaklini ifodalovchi mustaqil ish, eng avvalo, talaba shaxsiyatining barqaror kasbiy motivatsiyasi va uning kasbiy o‘z-o‘zini anglashining yuqori darajada rivojlanishini nazarda tutgan holda, sub’ektning individual psixologik va shaxsiy xususiyatlari bilan shartlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акулина Н.Н. Влияние общего интеллекта и мотивации на успешность усвоения знаний //Ананьевские чтения – СПб: Питер, 2015 – 496 с.
2. Вилюнас, В. К. Психологические механизмы мотивации человека / В. К. Вилюнас. – М. : Изд-во МГУ, 1990. – 288 с.
3. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы / Е. П. Ильин. – СПб : Питер, 2011. – 512 с.
4. Курдюкова Н.А. Оценивание успешности учебной деятельности как психолого-педагогическая проблема. – СПб.: Питер, 2007. - 386 с.
5. Маркова, А. К. Формирование мотивации учения / А. К. Маркова, Т. А. Матис, А. Б. Орлов. – М. : Просвещение, 1990. – 192 с.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2013.
7. Мильман В.Э. Внутренняя и внешняя мотивация учебной деятельности //Вопросы психологии. – 2007. – № 5. – С. 42-47.
8. Хекхаузен, Х. Мотивация и деятельность / Х. Хекхаузен. – СПб : Питер,2013. – 860 с.

Research Science and Innovation House